

SHAXSLARDA TAVAKKALCHILIK BILAN BOG‘LIQ VIRTUAL O‘YINLARGA MOYILLIGINI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

ADPI talabasi Musaxo’jayeva Robiya

Annotatsiya. Ushbu maqolada virtual o‘yinlarning shaxslar aro ta’siri ularning psixologik, fiziologik, aqliy rivojlanishida orqada qolishidagi ahamiyati, virtual o‘yinlarning aksaryatlari islom diniga zid ekanligi to‘g‘risida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: axborot asri, virtual o‘yinlar, ommaviy madaniyat, tavakkalchilik.

XXI asri axborot texnologiyalari asri Internet tarmog‘i orqali yoshlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan turli xil vayronkor g‘oyalarning kirib kelishi, kompyuter o‘yinlariga qiziqish bilan bog‘liq. Bu qiziqishlarda buzg‘unchi g‘oya targ‘ibotchilari o‘z maqsadlari yo‘lida samarali foydalanishga harakat qilmoqda. «o‘yinbozlik» jamiyatning ma’lum bir qismiga tahdid ekanligini yaxshi biladigan ekstremistlar o‘smirlar, yoshlar ongini shu yo‘l bilan egallashga harakat qilmoqda. “Olimlar "I. P. Korolenko" va "T. A. Donskix" o‘yinbozlik alomatlarini shunday tasniflashgan 1.O‘smirning o‘yinda o‘tkazayotgan vaqt miqdorining oshib borishi 2. Oldingi odatlar, qiziqishlar doirasi torayib, o‘yin haqida ko‘proq o‘ylashi 3.Yutsa ham, yutqizsa ham o‘yindan chiqqa olmasligi 4.O‘yin boshlanishini orziqib kutish, o‘yinsiz qolganda bezovta bo‘lib, asabiylashish 5.Tobora ko‘proq o‘ynash istagi, o‘yinga tobora ko‘proq narsa tika borish6.O‘yindan o‘zini toxtata olmay qolishi. «Bo‘ldi, o‘yinni tashladim" deydi, biroq oldin birga o‘ynagan sheriklarini ko‘rsa, o‘yin haqida gap ochilsa, o‘yingohning yonidan o‘tayotganda qaroridan tez aynib qoladi. 7. Ota-onasidan o‘yinga pul olish uchun yolg‘on gapirishi, o‘g‘irlik qilishi 8. Oila a‘zolaridan, shifokorlardan va boshqalardan o‘zining o‘ta o‘yinparastligini yashirib, yolg‘on gapirishi kabilar o‘smirning o‘yinparastligidan dalolat beradi"[1.128b.] Bola bu holatga tushishida uning ota onasi va u o‘rtasidagi munosabatlarda vaqtda mehrning yetishmasligi va qiziqishlarning e‘tiborsiz qolishi, extiyojlarni aniqlay olmaslik kabi bir qancha asoslarni keltirish mumkin.

Internetdan foydalanish qonun qoidalariga rioya qilish – axborot media savodxonlikka ega bo‘lish bugungi globallashuv asridagi turli axborot tahdidlarini oldini olish omillaridan sanaladi. “O‘smirlik davrida tarbiyaga jiddiy yondashmaslik, farzandning xatti-harakatlariga nisbatan befarqlik natijasida ko‘pchilik hollarda farzandni qoldan chiqarish mumkin. Zero, «o‘yinbozlik»ning oqibati yoki turli informatsion o‘yinlarga mukkasidan ketish natijasida nafaqat mutaassiblik, balki turli xil kasalliklarning kelib chiqishi ham kuzatilyapti. Ya‘ni internet o‘yinlariga ishqibozlik oqibatida miya faoliyati bilan bog‘liq "insult" "ludomaniya", "ruhiy kasalliklar" aksariyat hollarda "yuragi yorilib o‘lish" kabi salbiy oqibatlar hozirgi kundan judayam ko‘payib ketyabdi”[1-129].

Kompyuter o‘yinlari yoshlarning vaqtini o‘g‘irlamoqda. Internet – klublarda yoshlar ayni o‘qib, ilm oladigon bir paytda vaqtlarini bekorchi o‘yinlarga, ijtimoiy tarmoqlarda mutlaqo notanish shaxslar bilan qimmatli vaqtini tanishishga sarflayotgani ham tashvishli holat. Bu esa rivojlanib borayotgan davlatimiz uchun eng katta tahdidlardan biri hisoblanadi chunki biz yoshlar qancha ko‘p bilim olib aqlimizni vaqtimizni ilm olish uchun sarflasak davlatimiz kelajagi porloq bo‘ladi. Inson qancha ko‘p kitob o‘qisa shuncha fikrlashi ortib boradi, aqliy salohiyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi eng muhimi esa yoshlar el yurtga xizmati tegadigon barkamol avlod vujudga keladi. “Kompyuter o‘yinlarining keragidan ortiq mashhur bo‘lib, ommalashib ketgani va yoshlarga salbiy ta’siri tibbiyotchilarni ko‘pdan beri tashvishga solib kelayotgan muammolardan biridir. Hozir dunyodagi juda ko‘p mintaqalar, jumladan, Yevropa mamlakatlarida internetga qullik hastaligini davolaydigan maxsus shifoxonalar ko‘paymoqda. Ma’lum qilinishiga ko‘ra, tadqiqotchi Hilmiy Xidir Soriy “internet orqali bog‘lanishning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri” mavzuida 471 kishi o‘rtasida o‘tkazgan so‘rovlar natijalariga ko‘ra, internetga mutelik oqibatida ijtimoiy va ruhiy

yolg’izlik muammosi ko‘payayotgani aniqlangan. Sarosima, tushkunlik, xavotir, farzandlarning internet bilan mashg’ulligi sababli yosh oilalardagi kelishmovchiliklar, yoshlarning oila a’zolari bilan aloqalari beqarorlashuvi ushbu muammoning asosiy alamatlari sifatida ko‘rsatilmoqda” [1-131].

OAV — ayni paytda bu sohaning shaxs ijtimoiylashuviga ko‘rsatayotgan ta’siri juda katta ekanligi barchaga ma’lum. Ko‘rsatilayotgan, eshittirilayotgan, yozilayotgan barcha ma’lumotlar kishilar ongiga juda tez va unumli ta’sir ko‘rsatmoqda” [2-74].

Internetni yoshlar ongiga salbiy tomonlar bo‘lganidek ijobiy tomonlari ham mavjud. “Internetga bir buzg‘unchi va yot g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi hamda jinoyat olamiga etaklovchi “balo”ga qaraganday qarab, ha deganda bolalarimizga Internetga kirishga taqiq qo‘yavermasdan, avval ota-onalar undagi foydali va zararli tomonlarni farqlashni, ajrata olishni o‘rganishimiz zarur va muhim. Ana undan so‘ng farzandlarimizga u yoki bu resurs yohud ijtimoiy tarmoq ularga ma’naviy yoki moddiy zarar etkizishi mumkinligi, boshqalari esa ma’naviyatini, bilim va ko‘nikmalarini oshirishga yordam berishi haqida tushuntirishimiz darkor. Buning ustiga Inetnetda shunday saytlar borki, ularda biznes ochish yo‘llari va shunga o‘xshash boshqa ko‘plab foydali resurslarga to‘lib-toshib yotibdi. Bir so‘z bilan aytganda, Internet pul topishning bepoyon imkoniyatlari manbasidir. Agar shularni hammasini yotig‘i bilan farzandlarimizga tushuntirib bera olsak, yoshligidan Internetning tegishli resurslaridan to‘g‘ri foydalangan holda o‘z kuchi bilan daromad topa olishi mumkinligini singdirib borsak, bolalarimizda vaqtini bekor o‘tkazmasdan, o‘z ota-onasiga tushayotgan og‘irligini kamaytirib borib, oila byudjetiga o‘zining ham ulushini qo‘shish istagi paydo bo‘ladi”[1-136]. Internet resurslarining shunday bir yo‘nalishlari borki bu yo‘nalishlari orqali hatto pul ishlab topib foyda olish ham mumkin bular quydagilar. “Onlayn so‘rovlar, O‘z saytingni och va undan foyda ol, Veb-saytlar va veb-ilovalarni naqd pul evaziga ko‘rib chiqish, Ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash”[1-137].

Insonni ijtimoiylashuvida oila a‘zolarining, do‘stlarining, ustozlarining bir so‘z bilan aytganda yaqinlarining o‘rni katta ammo, internetdan har bir inson har hil foydalanadi. Internetda to‘g‘ri foydalanishimiz har birimizni avvalo o‘zimizga bog‘liq deb o‘ylayman. Har bir inson o‘zini tez tez analiz qilib ya‘ni “men hozir qayerga ketyabman?”, “men o‘zi nima bilan mashg‘ulman?”, “bugun kelajagim uchun qanday foydali biron ish qildim?” degan savollarni berib tursa hech qachon u vaqtini bekorchi narsalarga sarflamaydi. Eng muhimi esa o‘zi uchun foydali biron ishga qo‘l uradi.internetdan esa foydali ma‘lumotlar izlashga harakat qiladi. Aytib o‘tkanimdek ineternetni foydali tonmonlari ham ko‘p, biron bir kitobni electron shaklda shaklda yuklab olib o‘qisangiz bo‘ladi, internet orqali hunar o‘rganib shu hunarida foyda olish mumkin ayol qizlar uchun eng muhim jihatlaridan biri ozi hohlagan taomni pishriqlar salarlarni uyda otirgan holda o‘rganib tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1 2022-yil “30” avgustdagi 1-sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan “Media savodxonlik va axborot madaniyati” fan dasturi (sillabus) asosida ishlab chiqildi.

J.S.Iymanov - ADPI “Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

B.B.Bektashev - ADPI “Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

A.Axmedov - ADPI “Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

A.Egamberdiyev – ADPI “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti, (DSc)

T.Ortiqov - ADU “Falsafa” kafedrası, falsafa fanlari doktori, professor

2 Ismoilova, Nurjahon

1-58 Ijtimoiy psixologiya: o‘quv qo‘llanma / N. Ismoilova, D. Abdullayeva;
O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

- Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.- 168 b